



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS
TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI
KUCHAYTIRISHDA RAG‘BATLANTIRUVCHI MOTIVATSION
YONDASHUVLAR

Xodjayeva Mahliyoxon Odiljon qizi

Nizomiy nomidagi O‘zMPU

Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs magistranti

makhliyo.khojayeva.9315@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda raqamli asrda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini kuchaytirishda rag‘batlantiruvchi motivatsion yondashuvlarni shakllantirish bosqichlari va asosiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlash insonning mustaqil fikrlash, tahlil qilish mantiqiy asosda xulosalar chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. Pedagogik ta‘lim talabalari tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda rag‘batlantiruvchi motivatsion yondashuvlarning pedagogik samaradorligi aniqlanadi. Tezisda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini kuchaytirishda rag‘batlantiruvchi motivatsion yondashuvlarni ta‘limda va kundalik hayotdagi ahamiyati, shuningdek tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yordam beruvchi metodlar yoritilgan. Mazkur tezisda motivatsion yondashuv tanqidiy fikrlash bilan uzviy bog‘langan holda talqin qilinadi. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini kuchaytirishda rag‘batlantiruvchi motivatsion yondashuvlar pedagogik nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Tezisda motivatsion yondashuvning tanqidiy fikrlash kompetensiyasiga ta‘siri bo‘yicha yangi nazariy xulosalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar. *Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi, motivatsion yondashuv, rag‘batlantiruvchi mexanizmlar, mustaqil fikrlashni shakllantirish, rivojlantiruvchi metodlar, pedagogik motivatsiya modeli, kognitiv motivatsion integratsiya*

Abstract. *This thesis analyzes the stages and key mechanisms of forming motivating approaches that stimulate the enhancement of critical thinking competence in the digital age. Critical thinking reflects a person’s ability to think independently, analyze, and draw conclusions on a logical basis. The pedagogical effectiveness of motivating approaches in developing critical thinking competence among pedagogical education students is examined. The thesis highlights the importance of motivating approaches in strengthening critical thinking competence both in education and in everyday life, as well as methods that support the development of critical thinking. In this thesis, the motivational approach is interpreted in close connection with critical thinking. Motivational approaches in strengthening critical thinking competence are considered from a pedagogical perspective. New theoretical conclusions regarding the impact of motivational approaches on critical thinking competence are developed in the thesis.*

Keywords: *critical thinking competence, motivational approach, stimulating mechanisms, formation of independent thinking, developmental methods, pedagogical motivation model, cognitive-motivational integration.*




**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**

Аннотация. В данной тезисной работе анализируются этапы и основные механизмы формирования мотивирующих подходов, направленных на усиление компетенции критического мышления в цифровую эпоху. Критическое мышление отражает способность человека самостоятельно мыслить, анализировать и делать выводы на логической основе. Определяется педагогическая эффективность мотивирующих подходов в развитии компетенции критического мышления у студентов педагогического образования. В тезисе раскрывается значение мотивирующих подходов в укреплении компетенции критического мышления в обучении и повседневной жизни, а также методы, способствующие развитию критического мышления. В работе мотивационный подход рассматривается во взаимосвязи с критическим мышлением. Мотивирующие подходы к усилению компетенции критического мышления анализируются с педагогической точки зрения. В тезисе разработаны новые теоретические выводы о влиянии мотивационного подхода на компетенцию критического мышления.

Ключевые слова: компетенция критического мышления, мотивационный подход, стимулирующие механизмы, формирование самостоятельного мышления, развивающие методы, модель педагогической мотивации, когнитивно-мотивационная интеграция.

Kirish. Bugungi zamonaviy raqamlashgan davrda ta'lim va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida inson tafakkurining chuqur, asosli va mustaqil bo'lishi tanqidiy fikrlash kompetensiyasini kuchaytirishda rag'batlantiruvchi motivatsion yondashuvlarni shakllantirishda dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, axborot oqimi keskin oshgan, turli qarama qarshi fikrlar va qarorlar muhitida yashayotgan inson uchun tanqidiy fikrlash zarur kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof qilinadi. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi zamonaviy oliy ta'limning tayanch ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, talabaniq mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatni tahlil qilish va asosli ravishda xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantiradi. Ushbu kompetensiyani rivojlantiruvchi mexanizmlar muhim o'rin tutadi. Talabalarga mazmunan boy, amaliyotga yaqin, maqsadga yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratish tanqidiy tafakkurni faollashtiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Rag'batlantiruvchi mexanizmlar shuningdek, ichki motivatsiyani kuchaytirish, topshiriqlarning shaxsga yo'naltirilganligi, tanlov imkoniyati, fikr bildirish erkinligi va konstruktiv baholash tizimi tanqidiy fikrlash jarayonini sezilarli faollashtiradi. Tanqidiy fikrlashning nazariy asoslari ko'plab xorijiy tadqiqochilar tomonidan keng yoritilgan. Jumladan, AQSHlik olim Peter A. Facione tanqidiy fikrlash bo'yicha dunyodagi eng ko'p tan olingan olimlardan biri bo'lib uning fikriga ko'ra, tanqidiy fikrlash bu faqat tahlil emas, balki maqsadga yo'naltirilgan, doimiy o'zini boshqarishga asoslangan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS


tafakkur jarayonidir. Kompetentlik hissi va ijtimoiy ehtiyojlar qondirilganda ichki motivatsiya kuchayadi, bu esa chuqur va analitik fikrlashga olib keladi.

Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash kompetensiyasining asosiy kognitiv ko'nikmalari tahlil baholash hamda affektiv xususiyatlari alohida jarayon bo'lib ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun rivojlantiruvchi metodlarni misol qilib keltirish mumkin. Debat, case-study, reflektiv tahlil, muammoli vaziyatlar, kichik guruhli tadqiqot topshiriqlari hamda kognitiv-motivatsion integratsiyaga asoslangan mashg'ulotlar samarali natija beradi.

Pedagogik ta'lim jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur kompetensiya nafaqat bilimlarni o'zlashtirishning yuqori darajasini ta'minlaydi, balki bo'lajak pedagogning kasbiy tafakkur madaniyati, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, baholash refleksiya yurita olish qobiliyatining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayoniga motivatsion yondashuvni integratsiya qilish ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jihatdan qaraganda, talabalarda tanqidiy fikrlashning shakllanishi faqat texnologik yondashuvni emas, balki pedagogning ruhiy tomondan qo'llab-quvvatlash strategiyasini ham talab qiladi. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini kuchaytirishda pedagogning rag'batlantiruvchi fikrlari, konstruktiv muloqot, talabani tinglash va mustaqil fikr bildirishiga imkon yaratish rag'batlantiruvchi motivatsion yondashuvning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Talaba faolligini oshirish tanqidiy fikrlashni shakllantirishning asosiy mexanizmlaridan biridir, bu jarayonni rag'batlantirish esa motivatsion omillar bilan uzviy bog'liq. Rag'batlantirishning tizimli qo'llanishi talabanning intellektual faolligini oshiradi va tanqidiy fikrlash kompetensiyasining tarkibiy qismlarini shakllantiradi. Rivojlantiruvchi metodlar va motivatsion pedagogik yondashuvlar integratsiyalashganda talabanning kritik tafakkuri yanada barqaror rivojlanadi. Motivatsion yondashuv tanqidiy fikrlashning shakllanishi uchun zarur psixologik shart-sharoitlarni yaratadi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida rag'batlantiruvchi mexanizmlar talabanning fikr yuritish jarayonini chuqurlashtirishda katalizator vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi nutqida shunday ta'kidlaganlar - "Yoshlarni mustaqil fikrlashi, tahlil qila olishi, zamonaviy kompetensiyalarni egallashi- Yangi O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir" degan edi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish ham motivatsion yondashuvning innovatsion ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Virtual laboratoriyalar, interaktiv testlar, gamifikatsiya elementlari orqali talabalarda ta'lim jarayoniga nisbatan qiziqishni oshiradi. Shuningdek, talabalarining shaxsiy yutuqlarini e'tirof etish, rag'batlantirish, baholash tizimini shaffof tashkillashtirish ham motivatsion yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi. Rag'batlantiruvchi gamifikatsiya ya'ni o'yin -





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

elementlariva interfaol topshiriqlar talabaning o'quv motivini kuchaytiradi, bu esa ularning tanqidiy fikrlashini tezligini oshiradi va kognitiv faolligini kuchaytiradi. Interaktiv metodlar muammoli vaziyat va tahliliy grafika metodlari tanqidiy fikrlashni rag'batlantirishda samarali jarayonlardan biridir. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan talabalar muammoli vaziyatlarni hal etishda ko'proq ijodkorlik, analiz va mulohazali kuzatildi. Talabaning o'ziga bo'lgan ishonchi oshgan sari uning tanqidiy fikrlashi va o'quv natijalari yuqori bo'ladi. Pedagogik motivatsiya modeli motivatsiya va tanqidiy fikrlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu usul talabani mustaqil izlanishga undab, savol berish, dalillarni solishtirish va xulosa chiqarish jarayonlarini kuchaytiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda motivatsiyaning o'rni alohida ahamiyatga ega. Talabaning ichki motivatsiyasi kuchli bo'lsa, u axborotni chuqurroq tahlil qiladi, savol beradi, muammoni turli rakurslardan ko'rishga intiladi va mustaqil xulosa chiqaradi. Motivatsion yondashuv talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy drayverlardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Talabaning ichki qiziqishi, o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyoji va faolligi oshgan sari u tahliliy fikrlash, dalillarni solishtirish va mustaqil qaror qabul qilishda yanada muvaffaqiyatli natijalarga erishadi.

Xulosa

O'tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini kuchaytirish jarayoni motivatsion yondashuv bilan chambarchas bog'liq. Motivatsiya, ayniqsa uning ichki turi, talabaning kognitiv faolligini oshiradi, o'quv jarayonida mustaqil izlanishga undaydi va tahliliy faoliyatni faollashtiradi. Tanqidiy fikrlash esa aynan shunday faollik, izlanish va mustaqil qaror qabul qilishning kognitiv mexanizmlariga tayanadi.


Tasniflangan ilmiy manbalar tahliliga ko'ra:

1. Kognitiv-motivatsion integratsiya kuchaytirilgan ta'lim jarayonida talabalar axborotni chuqur tahlil qilishga moyil bo'ladi, muammoli vaziyatlarga ko'proq e'tibor qaratadi va fikr yuritish jarayonida dalillarga suyanadi.

2. Motivatsion rag'batlantirish mexanizmlari maqsad qo'yish, mustaqil izlanishga undash, qiziqish uyg'otish, vazifalarni shaxsiy ahamiyat bilan bog'lash talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini oshirib, tanqidiy fikrlashning shakllanishi uchun qulay psixologik muhit yaratadi.

3. Rivojlantiruvchi metodlar muammoli ta'lim, guruhiy tahlil, bahs-munozara, refleksiya, talabani faollikka undab, tanqidiy tahlil qilish, savol berish va asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

4. Pedagogik motivatsiya modeli qo'llanilganda talabaning o'ziga bo'lgan ishonchi, mas'uliyat hissi, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va o'quv jarayonidagi irodaviy qatnashuvi oshadi. Bu esa tanqidiy fikrlashning kognitiv jarayonlarini yanada samarali mexanizmga aylantiradi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

5. Ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, motivatsion yondashuv qo'llangan ta'lim sharoitida tanqidiy fikrlash kompetensiyasi sezilarli darajada oshiradi, chunki talaba o'qishga nisbatan faol, mas'uliyatli va maqsadga yo'naltirilgan subyektga aylanadi.

Shuningdek, tanqidiy fikrlashni kuchaytirishning samaradorligi ko'p jihatdan motivatsion yondashuvlarning to'g'ri tanlanishi va maqsadga muvofiq qo'llanishiga bog'liq. Rag'batlantiruvchi mexanizmlar va rivojlantiruvchi metodlar bir butun tizim sifatida ishlatilganda, talabalarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, dalil keltirish, baholash va asoslangan qaror qabul qilish kabi kompetensiyalar izchil shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2023 yil 20 dekabr.
2. Nazarova M. B. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari. Toshkent: TDPU 2021.
3. Abdullayeva O.M. Talabalarda motivatsiyani shakllantirishning pedagogik mexanizmlari. Pedagogika jurnali 2022 №3.
4. Tursunov B. S. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni. Oliy ta'lim muassasalari ilmiy axboroti, 2020 №2
5. Qodirova D. R. Pedagogik motivatsiya va talaba faoliyatini aktivlashtirish omillari. Ta'lim va innovatsiya jurnali 2021 №1.
6. Facione P. A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. Insight Assessment 2020.
7. Deci E. L. & Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. New York: Springer 2017

